

## BOLALARNING INTELLEKTUAL, HISSIY VA RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN, HOBBI VA FAOLIYATNING INTEGRATSIYASI

Aliyeva Iroda Otabek qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini  
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22056708>

**Annotatsiya:** mazkur maqolada bolalarning intellektual, hissiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda o'yin, hobbi va faoliyatning integratsiyasi haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, o'yin, hobbi, faoliyat, intellektual salohiyat, emotsional intellekt, raqamli intellekt, pedagogik shart-sharoitlar.

Maktabgacha ta'lim tizimida milliy metodik yondashuvlarni kelajak ta'lim ko'nikmalariga integratsiya qilish tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasi, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash mahorati hamda bolalarning individual rivojlanishiga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarga bog'liqdir.

David Elkind "o'yin, hobbiiy va faoliyat inson rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilib bu uchta asosiy ehtiyojni bolalar o'sishining ajralmas qismi sifatida ko'radi va ularning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Bolalar o'yin, hobbiiy va faoliyat o'zaro uyg'unlikda rivojlantirib, o'z qobiliyatlarini va shaxsiyatini shakllantiradilar"<sup>1</sup>. Tadqiqotchining fikricha, "kattalar bolalarning bu jarayonlarini rag'batlantirishi va qo'llab-quvvatlashi kerak. O'yin, masalan, bolalarga o'z qiziqishlarini amalga oshirishga imkon beradi va ular o'zlarini ifodalashni o'rganishadi. O'yinchoqlarni tanlashda ham Elkind ta'kidlaganidek, uch o'lchamli, interaktiv va yaratuvchan o'yinchoqlar bolalarga yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi. Yog'ochdan yasalgan bloklar va boshqa turli materiallar bolalarga o'z fikrlarini yaratish va rivojlantirishda yordam beradi".

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelajak ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga uch tomonlama ta'sirini o'yin, hobbiiy va faoliyat orqali (kognitiv (IQ), emotsional (EQ) va raqamli (DQ) kompetensiyalar shakllantirishni ko'rib chiqamiz. Ushbu uch asosiy omil ularning kelajakdagi ta'lim va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

*O'yin – bolaning hayoti va o'rganish usuli.* O'yin bolaning atrof-muhit bilan muloqotga kirishish va unga moslashish jarayonining ajralmas qismidir. Har bir yosh bosqichida o'yin bolaga dunyoni o'rganish, qoidalarga rioya qilish va muhitga moslashish imkonini beradi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, bolalar o'yin orqali atrof-muhitni o'z tasavvurlariga moslashtiradilar, bu esa ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin obyektlar orasida yangi bog'liqliklarni shakllantirish, muammolarni hal qilish va ijtimoiy muloqotni rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

*Hobbi – shaxsiy qiziqish va hissiy rivojlanish manbai.* Hobbi bolalarning shaxsiy qiziqishlarini rivojlantirish bilan birga, ularning emosional va ijtimoiy jihatdan yetuklikka erishishiga xizmat qiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, bola o'ziga yoqadigan mashg'ulotlar bilan


<sup>1</sup> Elkind D. The Power of Play: Learning What Comes Naturally //American Journal of Play. – 2008. – T. 1. – №. 1. – C. 1-6.

shug'ullanganda, u o'z his-tuyg'ularini anglaydi va boshqarishni o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o'zlarini dunyoning markazida deb hisoblaydilar va narsalarga egalik hissini kuchli his qiladilar. Biroq, ular ulg'aygan sari, o'z his-tuyg'ularini boshqalar bilan bo'lishish, hamdardlik va ijtimoiy munosabatlar kabi muhim ko'nikmalarni o'zlashtira boshlaydilar. Bu esa ularga kelajakda samarali muloqot qilish va ijtimoiy muhitga moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

*Faoliyat – amaliy ko'nikmalar va hayotga tayyorgarlik.* Bolalar o'zlari uchun foydali va qiziqarli mashg'ulotlar bilan shug'ullanganida, bu ularga hayotiy muhitga moslashish imkonini beradi. Faoliyat orqali bola o'zining harakatlarini muvofiqlashtirish, vazifalarni bajarish va ijtimoiy muhit talablariga moslashish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Tadqiqotchilar ish va o'yin o'rtasidagi farqni quyidagicha tushuntiradilar: ish jarayonida bola muhitga moslashishga harakat qiladi, o'yinda esa aksincha – atrof-muhitni o'z tasavvuriga moslashtirish orqali o'z g'oyalarini ifodalashga intiladi. Shunday qilib, bu ikki jarayon o'zaro bog'liq bo'lib, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.

Kattalar bolalarni ushbu jarayonlarda qo'llab-quvvatlashi va rag'batlantirishi zarur. Ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish orqali, bolalar kelajakdagi ta'lim va ijtimoiy hayotga yanada yaxshiroq tayyorlanishlari mumkin. Shu sababli, bolalarning o'yin, sevgi va faoliyat orqali shakllanishini qo'llab-quvvatlash ularning intellektual, hissiy va amaliy rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur nuqtayi nazardan kelib chiqib, IQ, EQ va DQ kompetensiyalarining rivojlanishida o'yin, hobbi va faoliyatning ahamiyatini quyidagi sxema (2.2.1-rasm) orqali vizual tarzda ifodalash mumkin.



**2.2.1-rasm. Bolalarning intellektual, hissiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda o'yin, hobbi va faoliyatning integratsiyasi**

Bolalarning intellektual, hissiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda o'yin, hobbi va faoliyatning uch tomonlama ta'sir integratsiyasi shuni ko'rsatadiki, bolalarning ta'lim va hayotiy muvaffaqiyati ularning o'yin, hobbi va faoliyat orqali shakllangan ko'nikmalariga bog'liq. Kattalar ushbu jarayonlarni rag'batlantirishi, mos muhit yaratishi va bolalarni mustaqil fikrlashga undashi muhim ahamiyat kasb etadi.

*O'yin orqali:*

IQ: O'yin orqali bolalar mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va kreativlikni rivojlantirishadi. Masalan, yog'och bloklar yordamida qurilish loyihalari yaratish.

EQ: O'yin davomida bolalar hissiyotlarini boshqarish, boshqalar bilan hamkorlik qilish va empatiya qilishni o'rganadilar.

DQ: Raqamli o'yinlar va interaktiv o'yinchoqlar orqali bolalar texnologiyani qo'llash, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishadi.

*Hobbi orqali:*

IQ: Hobbi va qo'llab-quvvatlash muhitida bolalar o'zlariga ishonch hosil qiladi, bu ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

EQ: Hobbi bolalarga hissiy xavfsizlikni ta'minlaydi, ularning hissiy tushunchalarini mustahkamlaydi va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilaydi.

DQ: Hobbi va qo'llab-quvvatlash bolalarni raqamli dunyoda xavfsiz va mas'uliyatli harakat qilishga o'rgatadi.

*Faoliyat orqali:*

IQ: Faoliyat (masalan, uy vazifalari, loyihalar) bolalarga muntazamlik, intizom va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatadi.

EQ: Faoliyat jarayonida bolalar mas'uliyatni o'rganadilar, shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

DQ: Raqamli texnologiyalar bilan ishlash (masalan, dasturlash, raqamli loyihalar) bolalarning raqamli savodxonligini oshiradi.

Ushbu jadvalga ko'ra bolalarning IQ, EQ va DQ ni rivojlantirishda o'yin, hobbi va faoliyatning har bir elementi bolalarning rivojlanishida ularni shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Z.T.Sagatovanning tadqiqotlarida ta'lim sifatini ta'minlash masalalari chuqur tahlil qilingan bo'lib, bunda pedagogik shart-sharoitlarning muhimligi alohida ta'kidlangan. "Tadqiqotda maktabgacha ta'lim tizimida sifatni ta'minlashga oid mavjud ziddiyatlar va metodologik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Bu tahlil, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etilishida pedagogik shart-sharoitlarning to'g'ri shakllantirilishi va ularga asoslangan tizimli yondashuvning zarurligini ko'rsatadi"<sup>2</sup>.

Muallif ta'kidlaganidek, maktabgacha ta'lim tizimi sifatini ta'minlashda tizimli yondashuvni ishlab chiqish zarur. Bu yondashuv, ta'lim jarayoniga ta'sir etuvchi barcha omillarni bir tizim sifatida ko'rib chiqish va har bir shart-sharoitni o'zaro uyg'unlashtirishni talab etadi. Pedagogik tizimda sifatni oshirishga yo'naltirilgan o'zgarishlar va yangiliklar, shuningdek, pedagoglarning kasbiy malakasi, ta'lim mazmuni va pedagogning bolalar bilan

<sup>2</sup> Sagatova Z.T. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish: metodika, zamonaviy yondashuvlar //Modern educational system and innovative teaching solutions. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 1284-1288.

o'zaro aloqalari kabi ichki omillarga asoslanadi. Bu omillarni hisobga olish, ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishiga yordam beradi va ta'lim sifatining uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishda tashqi va ichki omillar o'rtasidagi uyg'unlikka alohida e'tibor qaratiladi. Pedagogik shart-sharoitlarning samarali tashkil etilishi, ta'lim jarayonida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlarni ham o'z ichiga oladi. Bu omillar ta'lim tizimining sifatini oshirishga yordam beradi va bolalarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tizimida sifatni ta'minlash masalalari kompleks tarzda ko'rib chiqilishi kerak. Pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqishda ta'lim sifatini oshirish uchun barcha ichki va tashqi omillarni bir tizim sifatida baholash zarur. Ushbu kompleks yondashuv, nafaqat pedagogik bilim va malakalar, balki ijtimoiy va madaniy sharoitlarga ham asoslangan holda ta'lim sifatini ta'minlashda o'z rolini o'ynaydi. Bunda, davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida, maktabgacha ta'lim tizimining sifatli rivojlanishi ta'minlanadi.

Biz tadqiqotimizda, maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqishda bolalar uchun o'yinni tashkil etish va ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni muhim omil sifatida belgilaymiz. Pedagog-tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va madaniy kontekstlarini hisobga olgan holda ular uchun xavfsiz, rag'batlantiruvchi va rivojlantiruvchi muhit yaratadi. Ushbu jarayonda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi.

#### *Bolalar uchun qulay sharoitlar yaratish:*

Pedagog tarbiyachi bolalarning yoshiga, qiziqishlariga va rivojlanish ehtiyojlariga mos keladigan xavfsiz va qulay muhit tayyorlaydi. Bu muhit bolalarning erkin harakatlanishi, o'zlarini ifoda etishi va ijodiy faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi.

O'yin maydonchasi, resurslar (masalan, o'yinchoqlar, materiallar) va vaqtni rejalashtirish orqali bolalarning o'yin faoliyatini qo'llab-quvvatlashga harakat qilinadi. Xona ichida ham, tashqarisida ham bolalarning faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilinadi, shuningdek, bolalarning o'yin jarayonida qo'llab-quvvatlanishi va rag'batlantirilishi ta'minlanadi.

#### *Bolalar o'yinini rivojlantirish:*

Pedagog bolalarning individual xususiyatlarini, qiziqishlarini va rivojlanish bosqichlarini kuzatish orqali ularga moslashtirilgan o'yin faoliyatini rejalashtiradi. U bolalarni o'yin jarayoniga jalb qilish, ularning qiziqishlarini uyg'otish va yangi ko'nikmalar olishlariga yordam beradi.

Pedagog bolalarning o'yin holatiga kirishiga va uni davom ettirishiga yo'naltiruvchi ko'nikmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. U bolalarni mustaqil fikrlash, ijod qilish va o'zlarini erkin ifoda etishga undaydi.

#### *Bolalarning o'zaro munosabatlarini shakllantirish:*

Pedagog bolalarning o'yin jarayonida bir-birlari bilan hamkorlik qilishlariga, munosabatda bo'lishlariga va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishlariga yordam beradi. U bolalarning o'zaro muloqot qilish, baham ko'rish va birgalikda muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishga ko'maklashadi.

O'yin orqali bolalarga ijtimoiy munosabatlar qurish, hissiy jihatdan bog'lanish va guruhda ishlash qobiliyatlari rivojlantiriladi.

*Bolalarni o'yin jarayonida kuzatish va baholash:*

Pedagog bolalarning o'yin faoliyatini kuzatish orqali ularning rivojlanish bosqichlarini, qobiliyatlarini va o'rganish ehtiyojlarini aniqlaydi. U bolalarning o'yin orqali qanday ko'nikmalarni namoyon qilishini, qanday yangi bilimlar olishini va qanday ijtimoiy xulq-atvor ko'rsatishini kuzatadi.

Pedagog o'zining faol ishtiroki orqali bolalarning til bilan ifodalash, tushuntirish, asoslash va ijtimoiy munosabatlar qurish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

*Bolalarga o'zlarini va qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini berish:*

Pedagog bolalarga erkin o'yin uchun yetarli vaqt ajratadi va ularning o'z g'oyalari asosida yoki tashabbusi bilan o'ynashlariga imkon yaratadi. Bu jarayonda bolalar shoshmasdan, kattalarning haddan tashqari aralashuvisiz o'zlarini ifoda etishlari va qobiliyatlarini namoyon qilishlari mumkin.

Pedagog bolalarning mustaqil fikrlash, ijod qilish va o'zlarini erkin ifoda etish qobiliyatlarini rag'batlantirishga qaratilgan yondashuvni qo'llaydi.

*Pedagogik yondashuvning asosiy tamoyillari:*

Pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqishda bolalarning individual ehtiyojlarini, qiziqishlari va rivojlanish bosqichlari asosiy omil hisoblanadi.

O'yin orqali bolalarning ijtimoiy, hissiy, intellektual va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qilinadi.

Pedagogik yondashuv bolalarning erkinlik va mustaqillik ruhida o'sishiga, shu bilan birga ularning ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishiga asoslanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqishda pedagog-tarbiyachining roli juda muhimdir. U bolalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'yin faoliyatini rejalashtirish va ularning ijtimoiy, hissiy, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Pedagogik yondashuv bolalarning erkinlik, mustaqillik va ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'yin, hobbi va faoliyat bolalarning IQ, EQ va DQ ni rivojlantirishda markaziy o'rin tutadi. Pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqishda bu uch tomonlama ta'sirni hisobga olish zarur, chunki ular bolalar uchun yangi ko'nikmalar va ijtimoiy qobiliyatlarni shakllantirishga imkon yaratadi. O'yin jarayonida bolalar nafaqat mantiqiy va kreativ fikrlashni rivojlantiradi, balki hissiy xavfsizlikni ham ta'minlaydi, bu esa ularning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga yordam beradi.

Shuningdek, pedagog-tarbiyachi bolalar uchun xavfsiz, rag'batlantiruvchi va rivojlantiruvchi muhit yaratish orqali o'yin, hobbi va faoliyatni to'g'ri tashkil etish kerak. Pedagogning individual yondashuvi bolalarning ehtiyojlarini hisobga olib, ularni mustaqil fikrlash, ijod qilish va ijtimoiy munosabatlar qurish imkoniyatlari bilan ta'minlaydi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Sagatova Z.T. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish: metodika, zamonaviy yondashuvlar //Modern educational system and innovative teaching solutions. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 1284-1288.
2. Elkind D. The Power of Play: Learning What Comes Naturally //American Journal of Play. – 2008. – T. 1. – №. 1. – C. 1-6.